

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari¹

2025-yil yanvar-mart


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025-yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **7 066,0** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,5 %** ni tashkil etib, uning hajmi esa **1 239,2** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2024-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi **5 826,8** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **109,7 %** ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan (**2 020,1** ming so'm) 2025-yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **373,0** ming so'mga yoki **10,5 %** ga o'sib, **2 393,1** ming so'mni tashkil etgan.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 216,4** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **73,8 %** ini, jumladan, **35,9 %** ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

¹ 2024-yil yanvar-mart oylari hajmi va 2025-yil yanvar-mart oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025-yil yanvar-mart

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Surxondaryo viloyati	7 066,0	100,0	110,5
Termiz shahar	1383,5	19,6	113,4
<i>Tumanlar:</i>			
Oltinsoy tumani	191,2	2,7	110,3
Angor tumani	201,1	2,8	110,6
Bandixon tumani	113,9	1,6	110,3
Boysun tumani	148,5	2,1	111,0
Denov tumani	631,6	8,9	111,5
Jarqo'rg'on tumani	274,1	3,9	110,1
Muzrabot tumani	211,5	3,0	110,3
Qiziriq tumani	175,9	2,5	110,1
Qumqo'rg'on tumani	299,3	4,2	110,9
Sariosiyo tumani	291,0	4,1	111,6
Termiz tumani	225,9	3,2	111,6
Uzun tumani	199,7	2,8	110,4
Sherobod tumani	261,3	3,7	111,6
Sho'rchi tumani	254,4	3,6	111,0

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-martdagи "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-sон qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **7,2** % ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmining o'sishiga hissasi **1,0** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **11,4** % ga (o'sishiga hissasi **1,0** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **7,7** % ga (o'sishiga hissasi **1,0** band), savdo xizmatlari **11,4** % ga (o'sishiga hissasi **1,0** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **15,6** % ga (o'sishiga qo'shgan



hissasi **1,0** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **11,9** % ga (o'sishiga hissasi **1,0** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-mart)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024-y.	2025-y.	
Xizmatlar – jami	5 826,8	7 066,0	110,5
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	250,4	318,5	115,6
moliyaviy xizmatlar	890,5	984,7	107,2
transport xizmatlari	730,9	894,3	111,4
<i>shu jumladan: avtovtransport xizmatlari</i>	<i>658,5</i>	<i>800,8</i>	<i>112,0</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 507,5	1 805,6	107,7
savdo xizmatlari	1 451,3	1 701,5	111,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	112,9	139,4	111,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	184,4	296,0	138,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	86,1	115,8	98,2
ijara xizmatlari	80,5	116,7	110,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	141,9	174,0	110,0
shaxsiy xizmatlar	148,8	192,6	109,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	52,3	84,3	123,3
boshqa xizmatlar	189,3	242,6	107,0


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,6** %, savdo xizmatlari **24,1** %, moliyaviy xizmatlar **13,9** %, transport xizmatlari **12,7** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,5** %, boshqa xizmatlar esa **3,4** % ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiyligi hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,9** %, savdo xizmatlari **24,9** %, moliyaviy xizmatlar **15,3** %, transport xizmatlari **12,5** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,3** %, boshqa xizmatlar esa **3,2** % ulushini tashkil etgan.


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2025-yil yanvar-mart, %**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdag'i xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **72,9** foizni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan esa **17,5** foizga o'sgan.

2025-yilning yanvar-mart oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta xizmatlarida** o'sish kuzatildi. 2024-yilning mos davriga nisbatan hajmi **89,2** mlrd so'mga yoki **6,7** foizga o'sishi kuzatilgan.

Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari** (116,9 %), **pochta va kuryerlik** (116,6 %) **xizmatlarida** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyoohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi **96,8 %** ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **107,4 %** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);



b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batapsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)



Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Manzil: 180100, Surxondaryo
viloyati, At-Termiziy ko'chasi, 7-uy
Pochta: info@surxonstat.uz
Tel.: 75-90, 55- 541-80-00

